



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Камола Саипова ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
2. Аваз Ерметов ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
3. Raximjon Xasanov YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
4. Alibek Bengmatov XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
5. Ahmad Ergashev YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
6. Baxtiyor Nazirov SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA).....	54
8. Абдухолик Мингнарoв XX АСР БОШЛАРИДАТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
9. Людмила Соколова ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
10. Baxtiyor Xalmuratov O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
11. Jamshid Peremkulov XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
12 Anvarjon Erqo'ziyev XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86




Axmedjon Shonazarovich Yusupov,
Urganch davlat universiteti
“Tarix” kafedrası dotsenti.,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: yusupov89a@mail.ru

Mohira Saparboy qizi Abdullayeva,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti
mokhiraabdullayeva1998@mail.com
orcid.org/0009-0002-7092-1940

O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG‘LARNING O‘RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA)

For citation: Akhmedjon Sh. Yusupov, Mokhira S. Abdullayeva. THE ROLE OF WEAPONS IN THE MILITARY ADMINISTRATION OF THE NOMADIC PEOPLES OF CENTRAL ASIA (ON THE EXAMPLE OF THE EARLY SAKA-MASSAGETAE). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845510>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo hududida yashagan ilk sak-massaget ko‘chmanchi xalqlarining harbiy boshqaruv tizimida qurol-yarog‘larning tutgan o‘rnini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda ko‘chmanchi jamiyatlarning harbiy tashkiloti va qurollanish darajasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritiladi. Arxeologik topilmalar, antik yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida sak-massaget jangchilarining asosiy qurol turlari-kamon, nayza, qilich va jangovar bolta (akinak), xanjar (sagaris) ularning harbiy boshqaruvdagi funksional jihatlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida qurollanish darajasi harbiy boshqaruvning markazlashuvi, qo‘shinlarning tashkiliy tuzilishi va harbiy strategiya tanlash jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatganligi asoslab beradi. Natijada sak-massagetlar harbiy boshqaruvida qurol-yarog‘lar nafaqat jangovar vosita, balki ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni mustahkamllovchi muhim omil bo‘lganligi xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar: otliq va piyoda qo‘shinlar, chavandozlik, “skif yoyi”, harbiy-siyosiy uyushmalar, “nayzachilar”, harbiy qo‘mondonlik, maxsus otryadlar.

Ахмеджон Шоназарович Юсупов,
PhD, доцент кафедры истории,
Ургенчский государственный университет,
E-mail: yusupov89a@mail.ru

Абдуллаева Мохира Сапарбой кизи
Магистрант 2 курса, специальность

История Ургенчский государственный
университет имени Абу Райхан Беруни
mokhiraabdullayeva1998@mail.com
orcid.org/0009-0002-7092-1940

РОЛЬ ОРУЖИЯ В ВОЕННОМ УПРАВЛЕНИИ КОЧЕВЫХ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ РАНИХ САКО-МАССАГЕТОВ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль вооружения в системе военного управления ранних кочевых народов сако-массагетов, проживавших на территории Средней Азии. В исследовании освещается тесная взаимосвязь между военной организацией кочевых обществ и уровнем их вооружённости. На основе археологических находок, античных письменных источников и современных научных исследований анализируются основные виды вооружения сако-массагетских воинов- лук, копьё, меч и боевой топор, а также их функциональное значение в системе военного управления.

Кроме того, в ходе исследования обосновывается, что уровень вооружённости непосредственно влиял на централизацию военного управления, организационную структуру войск и процесс выбора военной стратегии. В результате делается вывод о том, что вооружение в военном управлении сако-массагетов выступало не только как средство ведения боя, но и как важный фактор укрепления социально-политической власти.

Ключевые слова: конные и пешие войска, верховая езда, «скифский лук», военно-политические союзы, «копейщики», военное командование, специальные отряды.

Akhmedjon Sh. Yusupov,
Associate Professor of the Department of History,
Urgench State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
E-mail: yusupov89a@mail.ru
Mokhira S.Abdullayeva,
Master's Student, 2nd year,
History Specialty Urgench state University
named after Abu rayhan al-Biruni
mokhiraabdullayeva1998@mail.com
orcid.org/0009-0002-7092-1940

THE ROLE OF WEAPONS IN THE MILITARY ADMINISTRATION OF THE NOMADIC PEOPLES OF CENTRAL ASIA (ON THE EXAMPLE OF THE EARLY SAKA- MASSAGETAE)

ABSTRACT

This article analyzes the role of weapons in the system of military governance of the early nomadic Saka-Massagetae peoples who lived in the territory of Central Asia. The study highlights the close relationship between the military organization of nomadic societies and their level of armament. Based on archaeological findings, ancient written sources, and modern scholarly research, the main types of weapons used by Saka-Massagetae warriors-such as the bow, spear, sword, and battle axe-are examined, along with their functional significance within the military command system.

The research further substantiates that the level of armament directly influenced the centralization of military governance, the organizational structure of troops, and the process of selecting military strategies. As a result, it is concluded that weapons in the military governance of the Saka-Massagetae were not only means of combat but also an important factor in strengthening socio-political power.

Index Terms: cavalry and infantry forces, horsemanship, “Scythian bow,” military-political alliances, “spearmen,” military command, special detachments.

1. Dolzarbligi:

Oʻrta Osiyo hududida yashagan koʻchmanchi qabila va xalqlarning harbiy boshqaruv nafaqat oʻzlarining hayotida balki-da oʻtroq aholiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Aynan shularni hisobga olgan holda, ilk sak-massaget koʻchmanchi xalqlarining harbiy boshqaruvini tahlil qilish barobarida, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotini qanday tarzda boʻlganligi haqida xulosa qilishga katta xissa qoʻshadi. Qadimgi yunon tarixchilari Gerodot, Strabon, Arrian, Poliyen, Ahamoniylarning Persapoliy devor yozuvlaridagi manbalar asosida sak-massaget qabilalarining harbiy qurol-yarogʻlari, harbiy boshqaruvi, qurollanishi haqidagi maʼlumotlar yetarlicha. Bundan tashqari zamoniy tadqiqotchilardan U.Sin, D.Topal, M.Ferrario kabi olim va olimlar tomonidan oʻrganilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Oʻrta Osiyo hududida yashagan ilk sak-massaget koʻchmanchi xalqlarining harbiy boshqaruv tizimida qurol-yarogʻlarning tutgan oʻrnini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalari qadimgi koʻchmanchi jamiyatlarning harbiy-siyosiy tashkiloti mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ilk sak-massaget qabilalarining hayotida faqat erkaklar emas, balki ayollarni oʻrni ham harbiy hayotida toʻlaqonli koʻrish mumkin. Bu qabilalarning davlat boʻlib shakllanishida davlat va harbiy boshqaruvning oʻrni alohida boʻlgan.

2. Metodlar va oʻrganilganlik darajasi:

Zamonaviy tadqiqotchilardan, V.V.Mokrobodovning “Mil. old. I mingyillikning oʻrtalariga oid ayrim qurol-aslaha topilmalari haqida (Janubiy Oʻzbekiston yodgorliklari boʻyicha)” mavzularidagi maʼruzalarida Turonning mil. old. 6-4-yuzyilliklardagi savdo aloqalari va harbiy qurollar tarixi yoritiladi [12].

2018-yilda moldaviyalik arxeolog Denis Topal tomonidan saklarning akinak nomli tigʻli xanjarlariga bagʻishlangan dissertatsiya himoyasi amalga oshirildi. Keyinchalik bu mavzuda arxeologning ikki monografiyasi chop etildi [13, 224].

2022-yilda A.K.Nefyodkin “Qadimgi forslarda harbiy ish” tadqiqotida Turon xalqlarining ahamoniylargacha va ahamoniylarga qaramlik davri harbiy ish va sanʼatini yoritadi [14, 272].

O.A.Xamidov oʻzining “Turonning harbiy ishi tarixining yoshlarni vatanparvarlik asosida oʻqitishdagi oʻrni (mil. old. 6-4-yuzyilliklar misolida)” nomli maqolasida harbiy boshqaruv balkida, qadimgi davrdagi sak-massagetlar, forslarning harbiy hayotini tadqiq qilgan holda tadqiqotlar olib borgan [15, 533].

Yuqoridagi manba va maʼlumotlarga asosida, Oʻrta Osiyo hududida yashagan xalqlarning davlat va harbiy boshqaruvida qurol-yarogʻlarning, harbiy ish va sanʼatning oʻrnini oʻrganish har jihatdan muhim.

Ushbu maqolada tarixiy-taqqoslash, arxeologik tahlil, tipologik hamda tarixiy-rekonstruksiya metodlarida keng foydalanilgan. Yozma va arxeologik manbalarga tayangan holda, sak-massagetlarning jang taktikasi (qochib jang qilish usuli), qoʻshin tuzilishi keng miqyosda tahlil qilishga yordam beradi. Ilk sak-massaget qabilalari harbiy boshqaruvdagi qurol yarogʻlarning ahamiyatini oʻrganishga katta xizmat qiladi.

3. Tadqiqot natijalari:

Oʻzbekiston hududida yashagan xalqlarining harbiy mahoratining shakllanishi, qurol-yaroqlarning paydo boʻlishi chuqur tarixiy ildizlarga ega boʻlib, juda qadim davrlarga borib taqaladi [1, 6].

Shularni inobatga olgan holda, Oʻrta Osiyoda tarixida koʻchmanchi sak-massaget xalqlarining oʻrni beqiyos. Bizning oʻlkamizda saklar, ularning bir koʻrinishi boʻlgan massagetlar qadimdan yashagani aytish joiz. Miloddan avvalgi VII asrda sak-massagetlar xalq yigʻini davriga oʻtadilar [2, 80]. Aynan bu yigʻinlar davlat shakllanishiga sababchi boʻladi. Shu asosda miloddan avvalgi VI asrlarda sak-skif davlatlari vujudga kelgan [2, 81].

Sak qabilalari to'g'risida ham shunday ma'lumotlar bor. "Qishloq va shaharlari yo'q. Aravada yashashadi, faqat chorvachilik bilan shug'ullanadi". Aynan ularning yashash tarzi harbiy mahoratining o'sishini ta'minlagan. Chunki ko'chmanchi hayot ularni har tomonlama tez va oson ko'nikishga majbur qilgan omillardan biri bo'lgan. Ammo ularni ko'chmanchi hayot kechirgan holda, faqat chorvachilik bilan shug'ullangan deyshlik ham xato bo'ladi.

Shuni hisobga olgan holda, Ktesiy saklarning dehqonchilik bilan shug'ullanishi va oz bo'lsa-da shaharlari borligi xususida yozgan [3, 85]. Behistun yozuvlarida ko'chmanchilarning yurti umumiy nom bilan "shak" deb ko'rsatilgan. Saklarning yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlari uchraydi [6,165-166].

Gerodot sak -massagetlarning yarog'-aslaha va ot-anjomlari haqida aniq ma'lumotlar keltirgan. "ularning otliq va piyoda qo'shinlari bo'lib, odatda ular kamon, nayza va harbiy cho'qmoqlar bilan jang qiladilar. Ularning hamma narsalari oltin va misdan tayyorlangan. Ularning cho'qmorlari, o'q va nayzalar uchlari misdan ishlangan, ust-boshlari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jabduqlarini ham ust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar. Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularning ro'zg'orida ishlatilmaydi, chunki bu metallar massagetlar yerlarida umuman uchramaydi, ammo oltin va mis ularda yetarlicha [7,215]. Bu kabi ma'lumotlar Strabonning asarida ham ko'rishimiz mumkin. Miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchi Gerodot massagetlarni shunday tasvirlaydi: "ular otliq va piyoda jangchilar(ular da bu qo'shin turining ikkisi ham mavjud bo'lgan) hamda kamonchi va nayzabardordir. Ularda odatda kistan bilan yuradilar. Qurollar misdan yasalgan. Kamar va belbog'larini oltin bilan bezaydilar. Otlarining ko'kraklarini ular misdan qilingan kejimlar bilan yopadilar, jilovlarning ayil va to'qalarini ham oltin bilan bezatadilar [7,216].

O'rta Osiyo ko'chmanchilarning siyosiy hayoti to'g'risida quyidagi ma'lumotlar bor: Har bir ko'chmanchi qabilalarning boshida shoh yoki malika turgan. Massagetlarda malika Tomiris, saklarda malika Zarina, shox Amorg, shahzoda Sparetra (Mavak) va boshqalar. Shoh yoki malika urush vaqtida qo'mondonlik qilgan, boshqa qabila shohlariga tinchlik yoki ittifoq to'g'risida elchilar jo'natishgan. Mintaqada yashagan ko'chmanchilar siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan xalq yig'ini to'g'risida ham I.V.Pyankov ma'lumotlar to'plagan. Xalq yig'inida barcha qurolli jangchilar qatnashgan. Yig'inda yo'l boshchilar saylangan, urush yoki sulh masalari hal qilingan. Agar urush to'g'risida bitimga kelishib olishsa, hamma jangga otlangan. [3,85].

G.E.Markov ko'chmanchilar jamiyati haqida muhim belgilarni keltirib o'tgan. Uning fikricha chorvaning ozchilik qo'lida to'planishi, mulkiy tabaqalanish va tabaqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yakunida qabilalar ittifoqi vujudga kelgan [5,304].

Qadimgi davrda uzoqdan turib jang qilish maqsadida ixtiro qilingan qurollarning eng mukammali bronza asrining oxirida paydo bo'lgan "skif yoyi" bo'lgan. Ahamoniylar yozuvlarida saklar uch guruhga bo'lingan edi. Shundan Yaksart (Sirdaryoning qadimgi nomi) bo'ylarida yashagan saklarni, "otgan o'qi xato ketmaydigan eng mohir o'qchilar" sifatida ta'riflangan. Bu murakkab tuzikgan yoy bir necha yog'och bo'laklaridan yasalgan. [8,29].

Uning ikki uchi va o'rta dastasi egilmaydigan, yelkalari esa qayishqoq bo'lgan. Yoy tortilgan holatda grek alifbosidagi "sigma" harfini eslatgan. Bunday turdagi yo'ylar uncha katta bo'lmagan. Jangchi otda ketayotgan paytida otishga qulayligi, o'qning uzoqqa borishi tufayli u Sharqdagi o'troq xalqlar xususan, xitoyliklar tomonidan qadrlangan. [1,11]. Bundan tashqari, ko'chmanchilarning mozor qo'rg'onlari o'rganilishi natijasida, ba'zi badavlat saklar dafn qilingan qabrlardan topilgan, novdadan to'qilgan va charm qoplangan kichkina qalqonlar egarga bog'lab qo'yilgan. Nayzalar, tumshuqsimon boltalardan piyodalar ham jangda yaxshi foydalanganlar. [9,145-146].

Bularga qo'shimcha tarzda, saklarning o'qlari bargsimon, ikki yoki uch qirrali bo'lgan, xanjar va qilich dastasining boshi yoysimon qayirib qo'yilgan. Massagetlar bu aynan sak qabilalarining yirik harbiy-siyosiy uyushmasidir. [6,165-166].

Sak-massaget qabilalari har doim boshqa urug'-qabilalar bilan to'qnashib turishgan. Chunki yer-suv, yaylov uchun kurashlar ko'chmanchilarning ajralmas qismi bo'lganligi sababli

ko'chmanchilar har doim harbiy jihatdan ustun bo'lishga harakat qilishgan. Shu sababdan, sak-massaget qabilalarida harbiy qurol-yarog'larning mustahkam bo'lishiga ahamiyat qaratishgan. Ko'chmanchi hayot tarzining ajralmas qismi bo'lgan ot barcha ko'chmanchi xalqlarda bo'lgani kabi sak-massagetlar uchun ham otdan foydalanish mahorat darajasida bo'lgan.. Ayollarning ham jang qilish mahorati shu darajada bo'lganki, ayollarning maxsus otryad ham bo'lgan. Ayollarning erkaklar bilan bir safda jang qilishi eng muqaddas burch deb qaralgan. Yunon tarixchisi Klavdiy Elinning yozishicha, kuyov uylanishidan oldin qiz bilan jang qilishi kerak edi. Agarda yigit g'alaba qozonsa qizga uylangan, mabodo yengilsa qizning asiriga aylangan.

Dionissiy Periegest (II asr) saklar ajoyib chavandozlar, kamondan zo'r otadilar, "dunyodagi hamma merganlar orasida eng mohiri skiflar, ular bironta o'qni bekor ketkazmaydilar" deydi.[11,62-63].

Gerodot massagetlarni "nayzachilar" nomi bilan atagan. Uzun masofaga yetib borishi uchun foydalanilgan qurol – kamonlar bo'lib, ko'chmanchilarning sevimli quroli hisoblangan. Bundan tashqari, sak-massagetlarda o'ziga xos jang taktikasi bo'lgan. Bunda "qochib jang qilish" taktikasidan foydalanganlar. Bu usuldan massagetlar malikasi bo'lgan To'maris forslar hukmdori Kir II bilan jangda foydalangan. Bu haqidagi ma'lumotlar yunon tarixchi Gerodotda uchraydi.

4. Xulosa:

O'rta Osiyoda yashagan ilk sak–massaget ko'chmanchi xalqlarining harbiy boshqaruv tizimida qurol-yarog'lar muhim va ko'p qirrali ahamiyatga ega. Chunki sak-massagetlarning ko'chmanchi hayot tarzi, otliq qo'shinlarga tayangan harbiy tizimi va yuqori darajadagi chavandozlik mahorati qurol-yarog'larning takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Xususan, "skif yoyi", nayza, qilich, xanjar va jangovar bolta kabi qurollar ularning harbiy strategiyasi hamda taktikalarini belgilagan desak xato bo'lmaydi. Uzoq masofadan jang qilish imkonini beruvchi kamonlar, tezkor otliq bo'linmalar va "qochib jang qilish" taktikasi sak-massagetlarning raqiblariga nisbatan ustunligini ta'minlagan. Shuningdek, qurollanish darajasi harbiy boshqaruvning markazlashuvi, maxsus otryadlar (jumladan, ayollar otryadlari)ning shakllanishi hamda harbiy qo'mondonlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Xalq yig'inlarida barcha qurolli jangchilarning ishtiroki, shoh yoki malikaning urush paytidagi bevosita qo'mondonligi qurol-yarog'ning nafaqat harbiy, balki siyosiy ahamiyatga ekanligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, sak-massaget qabilalari harbiy boshqaruvida qurol-yarog'lar jangovar ehtiyojdan tashqari, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini belgilovchi, hokimiyat va harbiy intizomni mustahkamlovchi muhim tarixiy omil sifatida namoyon bo'lgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Зияева Д.Х. История военного дела Узбекистана (с древнейших времён до наших дней). – Т, III., 2012. Ziyayeva D.Kh. History of Military Affairs of Uzbekistan (from Ancient Times to the Present) - T, Sh., 2012.
2. История Узбекистана. Том VIII –Т., 2023. History of Uzbekistan. Vol. VIII - T.,2023.
3. Пьянков И.В. Общественный строй ранних кочевников Средней Азии по данным античных авторов // Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. –Л.,Т Д. Ноябрь ., 1975. Pyankov I.V. The Social Structure of Early Nomads of Central Asia According to Classical Authors // Early Nomads of Central Asia and Kazakhstan. – L., T D. November ., 1975.
4. Страбон. География. XI, 8. Strabon. Geography. XI, 8
5. Марков Г.Е. Кочевники Азии. Структура хозяйства и общественной организации. - М., Наука, 1971. Markov G.E. Nomads of Asia. Structure of Economy and Social Organization. - M., Nauka, 1971.
6. История Узбекистана. Том I . – Т., 2025. History of Uzbekistan. Vol. I - T., 2025.
7. Геродот. 1 книга .-Т., Клио. Herodotus. Book I .- Т., Клио.
8. Хазанов А.М. Очерки военного дела сарматов. - Москва ., 1971. Khazanov A.M. Essays on the Military Affairs of the Sarmatians. –M., 1971.

9. Степная полоса азиатской части СССР в скифо-сарматское время. -М.,1992. The Steppe Zone of the Asian Part of the USSR in the Scythian-Sarmatian Period. - М., 1992.
10. Дадабоев Х.В. История военного искусства. -Т.,2013. Dadaboyev Kh.V. History of Military Art – Т., 2013.
11. Сулаймонова Ф. Восток и Запад .-Т., 1997. Sulaymonova F. East and West .-Т., 1997.
12. Предварительная программа XXI Ежегодной Московской конференции “Восточные древности в истории России. Эпоха средневековья и ее археологическое окружение”., 19–21 марта 2025 <https://archaeolog.ru/press/events/vostochnye-drevnosti-v-istorii-2025>
2025 Preliminary Program of the XXI Annual Moscow Conference “Eastern Antiquities in the History of Russia. The Medieval Era and Its Archaeological Context”., March 19–21, 2025 <https://archaeolog.ru/press/events/vostochnye-drevnosti-v-istorii-2025>
13. Топал Д.А. Грифовые кинжалы типа Иссък и акинаки востока Евразии. А., НИЦИА Бегазы Тасмола., 2024. Topal D.A. Griffon Daggers of the Issyk Type and Akinakes of Eastern Eurasia. - А., NITsIA Begazy-Tasmola., 2024.
14. Нефёдкин А.К. Военное дело древних персов. М., Эксмо: Яуза, 2022. Клейменов А.А. С опозданием о давно необходимом. Рецензия на книгу А.К. Нефёдкина “Военное дело древних персов” // Тульский научный вестник. Серия: История. Языкознание. 2024. №2 (18). Nefyodkin A.K. The Military Affairs of the Ancient Persians. М., Eksmo: Yauza, 2022. Kleymenov A.A. Review of A.K. Nefyodkin’s book “The Military Affairs of the Ancient Persians” // Tula Scientific Bulletin. Series: History. Linguistics, 2024. No. 2 (18).
15. “Создание национальных аспектов воспитания учащихся военно-академического лицея в духе патриотизма и внедрение современных тенденций образования”. Республиканская научно-практическая конференция. – Т., 18 апреля, 2025. “Creating National Aspects of Patriotic Education for Military-Academic Lyceum Students and Implementing Modern Educational Trends.” Republican Scientific-Practical Conference. – Т., April 18, 2025.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должны быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].